

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.T.115.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

XOLMURATOV OYBEK YARKINOVICH

**PAXTANI TOZALASH MASHINALARI QOZIQLI BARABANINI
TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA MAYDA IFLOSЛИKLARNI
TOZALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi
va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Xolmurotov Oybek Yarkinovich

Pahtani tozalash mashinalari qoziqli barabanini takomillashtirish asosida mayda iflosliklarni tozalash samaradorligini oshirish..... 3

Холмуратов Ойбек Яркинович

Повышение эффективности очистки мелких примесей на основе совершенствования колкового барабана хлопкоочистительных машин..... 21

Kholmurotov Oybek Yarkinovich

Increasing the efficiency of cleaning small impurities based on improving the pile drum of cotton gins..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 46

**JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.T.115.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

XOLMURATOV OYBEK YARKINOVICH

**PAXTANI TOZALASH MASHINALARI QOZIQLI BARABANINI
TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA MAYDA IFLOSЛИKLARNI
TOZALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**05.06.02 - To'qimachilik materiallari texnologiyasi
va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/T3496 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Jizzax politexnika instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.jizpi.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.zivonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Egamberdiyev Fazliddin Otaqulovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Rasmiy opponentlar:

Djamalov Rustam Kamoliddinovich
texnika fanlari doktori, professor

Pardayev Xonimqul Normamatovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan to'qimachilik sanoati instituti

Dissertatsiya himoyasi Jizzax politexnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi **PhD.03/30.06.2020.T.115.01** – raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "16" avgust soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:130100, Jizzax sh., Islom Karimov ko'chasi, 4-uy. Tel.:(+99872) 226-46-05, faks: (+99872) 226-45-06; e-mail:dgpi_info@edu.uz Jizzax politexnika instituti birinchi binosi, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Jizzax politexnika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№56-raqam bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax sh., Islom Karimov ko'chasi, 4-uy. Tel.:(+99872) 226-46-05, faks: (+99872) 226-45-06.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "16" avgust kuni tarqatilgan
(2024-yil 14-iyundagi №16-raqali reyestr bayonnomasi)



A. Usmankulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.f.d., professor

I. Abbazov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD), dotsent

R. Sulaymonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi o'rinbosari, t.f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tabiiy tolalardan hisoblangan paxtani tayyorlash va saqlash, sifatini oshirish bo'yicha energiya-resurstejamkor texnika va texnologiyalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. «Xalqaro konsultativ qo'mita (ICAC) ma'lumotlariga qaraganda jaxon miqyosida 24,55 mil. tonna tola iste'mol qilingan bo'lsa-da, ishlab chiqarilgan tola 23,07 mln. tonnani tashkil etadi»¹, yetishtirilgan tola tarkibida ma'lum miqdorda begona iflos aralashmalar bo'lishini hisobga olsak, yetishtirilgan paxtani tozalashda ish jarayonini sifatli amalga oshiradigan mashinalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan paxtani tozalash uchun ish sifati yuqori hamda energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda yetishtirilgan paxta tarkibidagi begona iflos aralashmalarni ajratib olish uchun resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, paxtani iflosliklardan samarali tozalash agregatlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanadi. Bu borada, paxtani dastlabki qayta ishlashda iflos organik va noorganik aralashmalaridan tozalashda yuqori ish sifatini ta'minlash hamda energiya va resurslarni tejash, maqsadida energiya-resurstejamkor mashinalarni ishlab chiqish hamda uning texnologik jarayoni, parametrlari va ish rejimlarini ilmiy asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxtachilik sanoatida paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va ishlab chiqarilayotgan tolaning sifatiga qo'yiladigan talablar sezilarli darajada o'zgardi. O'zbekiston Respublikasining yillik investisiya dasturlari doirasida paxta tozalash korxonalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, «...Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qililib, bunda to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish...»² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, paxtani qayta ishlashda sifatli tozalash bilan birga, tozalash jarayonini jadallashtirish maqsadida modernizatsiyalashgan mashinalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020-yil 6-martdagi PQ-4633-son «Paxtachilik sohasida

¹ International cotton advisory committee. Washington, From the Swcretaiat of the ICAC, email secretariat@icac.org. September 1, 2017

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni.

bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-iyundagi 397-son «Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Paxtani tozalash uskunalari takomillashtirish bo'yicha qator chet el olimlari M.N.Willcutt, S.E.Hughs, G.J.Mangialardi, S.G.Jasckson, G.C.Robert, W.S.Anthony, R.M.Sutton, R.V.Barker, P.A.Boving, J.W.Laird, V.G.Arude, S.K.Shukla, T.S.Manojkumar, D.W.VanDoorn, B.M.Norman va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Paxtani iflos aralashmalardan tozalash texnika va texnologiyasi, asosiy ishchi qismlarining ko'rsatkichlari va ishlash rejimlarini takomillashtirish bo'yicha Respublikamizning bir qator olimlari, shu jumladan B.A.Levkovich, S.D.Boltaboyev, A.N.Nuraliyev, S.A.Samandarov, G.I.Miroshnichenko, R.Z.Burnashev, Y.F.Budin, B.N.Yakubov, R.K.Djamolov, M.Sharaxmedova, G.D.Djabbarov, P.N.Borodin, R.V.Korabelnikov, B.I.Roganov, X.K.Tursunov, A.Djurayev, E.T.Maksudov, T.M.Kuliyev, A.Y.Lugachev, A.A. Safoyev, X.T.Axmedxodjayev, R.M.Muradov, B.Mardonov, Sh.Sh.Xakimov, O.Sarimsokov, X.K.Raxmonov, I.D.Madumarov, M.Agzamov va boshqalar soha rivojiga munosib xissa qo'shgan.

Jahon va O'zbekiston amaliyotida paxtani mayda iflosliklardan tozalashda, asosan, qoziqli barabanlardan foydalaniladi, faqat ularning konstruksiyalari, o'lchamlari va ishlash tartiblarida farq mavjud. Xorijiy mutaxassislarining tadqiqotlari natijalariga ko'ra qoziqli barabanlarni ishlatish soni chigitli paxtani qayta ishlash texnologik jarayonida olinadigan tola sinfi va tashqi ko'rinishiga katta ta'sir qiladi. Qoziqli barabanlar soni 1 dan 7 gacha oshganda tola sinfi va tashqi ko'rinishi keskin oshadi, 7 dan 20 gacha oshganda esa nisbatan sekinroq ortadi, ammo 20 dan ortiq qoziqli baraban ishlatilishida tola sifati va tashqi ko'rinishining yaxshilanishi kuzatilmaydi.

Chet el va mahalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan paxtani tozalash uskunalarini tahlildan aniqlandiki, bugungi kunda paxta xomashyosidan yuqori sifatli tola olinishini ta'minlaydigan, shu jumladan mayda iflosliklardan tozalash mashinalarining ishchi organlarini takomillashtirish masalalari o'zining samarali yechimini to'liq topmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax politexnika instituti hamda "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ ning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi №0121 "Paxtani tozalash mashinalari qoziqli barabanini takomillashtirish asosida mayda iflosliklarni tozalash samaradorligini oshirish" mavzusi bo'yicha bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxtani mayda iflosliklardan tozalashda qoziqchali barabanning qoziqchalari uchlarini yoysimon shaklga keltirib hamda rezinali plankalarning takomillashtirilgan konstruksiyaning tozalash texnologiyasi va konstruktiv parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalashda ishlatiladigan mahalliy va xorijiy texnologik mashinalarni ishlash tamoyillari, konstruktiv xususiyatlarni, texnik va texnologik tasniflarini analitik tahlil etish;

paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalashdagi qoziqli baraban parametrlarini tozalash jarayoniga ta'sirini nazariy tahlil etish;

paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalashning sifat va unumdorlik ko'rsatkichlarini oshirishni ta'minlovchi mashinaning texnologik konstruksiyasini ishlab chiqish;

paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash usulini ishlab chiqish va uni amalga oshirish imkonini beradigan texnologik mashinaning tajribaviy tadqiqotlarini bajarish;

paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash uchun takomillashtirilgan mashinani ishlab chiqarish sinovlarini o'tkazish va samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasining bazasida takomillashtirilgan ishchi organlarni joylashtirib o'zgartirilgan tajriba nusxasi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida mavjud paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasining bazasida takomillashtirilgan ishchi organlardan foydalanib paxtani tozalash jarayonini uning texnologik parametrlariga bog'liqligi qonuniyatlari, paxta bo'lagini qoziqli baraban va to'rtli yuza oraliq idagi harakati qonuniyatlari olingan.

Tadqiqotning usullari.

Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanika, mashina va mexanizmlar nazariyasi, oliy matematika, tebranishlar nazariyasi, texnologik mashinalar ish jarayonlarini matematik modellashtirish, matematik statistika va hisoblash matematikasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasining qoziqli baraban qoziqchalari uchlari yoysimon shaklga keltirish va rezinali plankalar o'rnatish orqali takomillashtirilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasining yoysimon uchli qoziqchalar uchlarining radiuslari va rezinali plankalarning to'rtli yuza orasidagi asosiy parametr ko'rsatkichlarining muqobil o'lchamlari $(y)_{t=\tau} = L \Rightarrow$ unda τ –vaqt qoziqchali barabanda paxta bo'lakchasini uzatishdagi harakat tenglamasi chegaraviy shartlarga asosan aniqlangan;

paxtadan mayda iflosliklarning ajralishini jadallashtirishda barabandagi har bir yoysimon uchli qoziqchalari burchak tezliklarining turli xil qiymatlarida tola tozalash samaradorligini va chigitning shikastlanish darajasiga bog'liqligi ularga ta'sir etuvchi

kuchlarni inobatga olgan holda aniqlangan.

paxtadagi chigitning shikastlanishi va paxtani mayda iflosliklardan tozalagichning tozalash samaradorligiga ta'siri imkoniyatlari chegaralari ishlab chiqilgan regressiya tenglamalari orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxtaning mayda iflosliklardan tozalashni mavjud texnologiyasini samaradorligini past bo'lishi sabablari asoslangan;

paxtani shikastlanishini kamaytirish uchun yoysimon uchli qoziqchali barabanlar ishlab chiqilgan;

amaliy tajribalar asosida qoziqchali barabanning qoziqchalar uchlarining yoysimonlik radiusi va plankalar qatorining tozalash samaradorligiga bog'liqligi aniqlangan;

paxtani mayda iflosliklardan tozalashda tola va chigit sifatini yaxshilaydigan, tozalash samaradorligi yuqori bo'lgan tozalagich ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Ko'rib chiqilayotgan predmet sohasidagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar ma'lumotlarining mosligiga, paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayonining matematik modellarini oqilona tanlash va paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasini takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqarishga joriy etish sinovidan o'tkazishning ijobiy natijalariga muvofiqligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati paxtani mayda ifloslikdan tozalovchi qoziqli ishchi organlari bilan tozalash jarayonining bog'lanishlari va tozalash effektini paxtani qoziqli ishchi organlarga maqbul miqdorlarda berishni analitik bog'lanishlari ishlab chiqilganligi, texnologik jarayonni ratsional parametrlarini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan, takomillashtirilgan paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasining takomillashtirilgan nusxasidan foydalanishda paxtani mayda ifloslikdan tozalash samaradorligi oshganligi va paxta tozalash korxonalarida paxtani mayda ifloslikdan tozalovchi mavjud 1XK tozalagichlarini takomillashtirish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Paxtani mayda iflosliklardan tozalagichning qoziqchali-plankali barabani qoziqchalari uchlarini yoysimon shaklga keltirish va plankalarni uzaytirib takomillashtirilgan konstruksiyasi bo'yicha olingan natijalar asosida.

Taklif etilgan oqimli texnologik mashinaning mayda ifloslikdan tozalash bo'limining takomillashtirilgan konstruksiyasi Jizzax viloyati, "PAXTAKOR TEKS" MCHJ QK "Zarbdor paxta tozalash" tarkibidagi paxta tozalash korxonasiga joriy etilgan ("Paxta-to'qimachilik klasterlar" uyushmasining 2023-yil 03/22-853-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 1XK tozalagichining korpusiga takomillashtirilgan yoysimon uchli qoziqli barabanlar o'rnatilganligi hisobiga paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayonida umumiy tozalash samaradorligi 45,6%ni va mayda ifloslik bo'yicha 57,2%ga oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 7 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan 5 ta xalqaro va 2 ta Respublika anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 3 tasi xorijiy jurnalda, O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan 1 ta foydali model olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 96 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi va masalalari ifodalangan, tadqiqotning ob'yekt va predmeti tavsiflangan, Respublikaning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash texnologik uskunalari tahlili”** deb nomlangan birinchi bobi adabiy manbaalarni analitik tahliliga va paxtani tozalash texnikalari va texnologiyalarining hozirgi holatiga bag'ishlangan. Aniqlandiki, amaldagi paxta xomashyosini tozalagichning asosiy kamchiligi shundaki, Paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash muhim jarayon hisoblanib, uni keyingi bosqichda qayta ishlash, ya'ni jinlash va to'la tozalash jarayonlariga katta ta'sir etadi. Agar mayda iflosliklar yetarli darajada tozalanmasa u passiv ifloslikdan aktiv ifloslikga o'tadi va keyingi jarayonlarda, ya'ni jinlash va to'la tozalagichda ajratilishi qiyinlashadi, tiqilishlar sodir bo'ladi, to'la va chig'it shikastlanadi, natijada elektr energiya sarfini oshishiga olib keladi.

Texnik yechimning mohiyati 1-rasmda taklif etilayotgan paxta tozalagichning sxemasi ko'rsatilgan chizma orqali tushuntiriladi.



1-rasm Taklif etilayotgan qoziqli baraban sxemasi (chapda) va uning tayyorlangan varianti (o'ngda)

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ushbu tadqiqotimizning vazifasi etib paxta xomashyosini chiqindilardan tozalashda qoziqli barabanlar sonini oshirmagan

holda, qo‘shimcha tozalash imkoniyatlarini yaratish va paxta tarkibidagi chigit va tolaning mexanik shikastlanishini kamaytirish belgilandi. Qo‘yilgan vazifani bajarishi uchun paxta tozalash korxonalarida ishlatilayotgan 1XK tozalagichlarini qoziqli barabanlari konstruksiyasi va ishlash tamoyili tahlil etildi va keyingi ilmiy tadqiqot ishlari uchun texnik yechim taklif etildi.

1-rasmda ko‘rsatilgan texnik yechimga ko‘ra, paxta tozalagichning qoziqli barabanida tekis uchli qoziqchalar o‘rniga yoysimon holga keltirilib tayyorlangan qoziqlar (1) qo‘llanilib, bu qoziqlar tozalanayotgan paxtani ichiga yumshoq kirib, undan oson chiqib ketadi. Tozalanayotgan paxtaga zarba qoziqlarning yoysimon uchlari tomonidan beriladi va natijada paxta tarkibidagi chigit va tolalarning shikastlanishining kamayishga erishildi.

Qoziqli baraban bo‘g‘inlarida rezinali plankalar (2) o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, rezinali plankalarning to‘rli yuza bilan orasidagi masofani maqbul o‘lchamlari aniqlangan taqdirda to‘rli yuzada paxta bo‘lakchalari va iflosliklar bilan tiqilishini oldini oladi va natijada tozalash samaradorligining oshishiga erishildi.

Titish va tozalash jarayonlarini o‘rganishning asosiy maqsadlaridan biri paxta xomashyosining tozalash sifatini oshirishdir. Paxtani yumshatish va tozalashning asosiy vositalari:

geometrik parametrlar: ifloslik to‘rli yuzasi va barabanlarning qoziqlari orasidagi masofa o‘lchami; barabanlar soni, shakli, uzunligi, aniqligi, qoziqlar soni; qoziqlarning zichligi (barabanning birlik maydoniga qoziqlar soni); ifloslik to‘rli yuzasini zichligi (birlik uzunligiga teshiklar soni). Ushbu parametrlar ish maydoni miqdorini aniqlaydi.

kinematik parametrlar: paxta bo‘lakchalarini titilishiga ta’sir qiluvchi barabanlarning aylanish tezligi.

Shunday qilib, paxta bo‘lakchalarini titish va tozalash jarayonlarining samaradorligiga ta’sir qiluvchi ko‘plab omillar mavjud. Qoziqli barabani va ifloslik to‘rli yuzasi orasidagi bo‘shliqdagi paxta oqimi tasodifiy zichlikka ega bo‘lganligi sababli, tozalagichning oxiridan chiqadigan oqimning bir xilligida bevosita aks etadigan bu oqimning barqarorligi va turg‘unligi tozalovchi qoziqli barabanlari ishining dinamikasiga bog‘liq bo‘ladi.

Taklif etilayotgan paxtani tozalash seksiyasini sxemasi asosida uning parametrlari o‘zgartiriladigan eksperimental nusxasi tayyorlandi, tadqiqotning uslubiyati ishlab chiqildi, maqsadlari va vazifalari belgilab olindi.

2-rasm. Qoziqcha sirtida joylashgan paxta bo‘lagi harakatini ifodalovchi hisob sxemasi

Dissertatsiyaning **“Paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayonining nazariy asoslari”**, nomli ikkinchi bobida ishlab chiqilgan paxtani tozalash seksiyasining asosiy geometrik parametrlarini nazariy asoslash natijalari keltirilgan.

Quyida keltirilgan 2-rasmdagi hisob sxemasida ko'rsatilganidek qoziqli baraban aylanganida paxta bo'lagiga quyidagi kuchlar ta'sir qiladi:

Aylanayotgan barabanning burchak tezligi o'zgarish qonuni bo'yicha quyidagicha: $\alpha = \omega t$

$$\begin{cases} \frac{k}{m}v^2 + \frac{ql}{m} - 2\omega\dot{x} - g \sin \alpha = \ddot{y} \\ \omega^2 h + g \cos \alpha - \frac{\mu q}{m}l = \ddot{x} \Rightarrow \end{cases}$$

Chegaraviy shartga asosan $(y)_{t=\tau} = L \Rightarrow$ unda τ –vaqt tenglama qoziqchali barabanda paxta bo'lakchasini uzatishdagi harakat tenglamasini ifodalaydi. Tenglamadan foydalanib har bir yoysimon uchli qoziqchali barabanning burchak tezliklarini turli xil qiymatlarida paxta oqimiga ta'siri va shu orqali tozalash samaradorligini oshirish Maple dasturi orqali grafiklarda tahlil qilindi.

Boshlang'ich shartdan $\dot{x}_{t=0} = 0 \Rightarrow c_1 = 0$ bu yerda

$$\dot{x} = \left(\omega^2 h - \frac{\mu q l}{m} \right) \cdot t - g \omega \sin \omega t$$

ni hisobga olamiz va (4) tenglamani qo'yamiz

$$\begin{aligned} \frac{k}{m}v^2 + \frac{ql}{m} - 2 \cdot \omega^3 h t + \frac{2\omega\mu q l}{m}t + 2\omega^2 g \omega \sin \omega t - g \sin \omega t &= \ddot{y} \\ \dot{y} = \left(\frac{ql}{m} + \frac{k}{m}v^2 \right) \cdot t - 2\omega^2 h \cdot \frac{t^2}{2} + \frac{2\omega\mu q l}{m} \cdot \frac{t^2}{2} + 2\omega^3 g \cos \omega t + c_2 \end{aligned}$$

Boshlang'ich shartdan $(\dot{y})_{t=0} = 0 \Rightarrow c_2 = 0$ bu yerda

$$y = \left(\frac{ql}{m} + \frac{k}{m}v^2 \right) \cdot \frac{t^2}{2} + \left(\frac{2\omega\mu q l}{m} - 2\omega^2(R_b + h) \right) \cdot \frac{t^3}{2} - 2\omega^4 g \sin \omega t + c_4$$

Chegaraviy shartga asosan $(y)_{t=\tau} = L \Rightarrow$ unda τ –vaqt

$$L = \left(\frac{ql}{m} + \frac{k}{m}v^2 \right) \cdot \frac{\tau^2}{2} + \left(\frac{\omega\mu q l}{m} - \omega^2 h \right) \cdot \frac{\tau^3}{3} - 2\omega^4 g \sin \omega \tau \quad (1)$$


(1) tenglama qoziqchali barabanda paxta bo'lakchasini uzatishdagi harakat tenglamasini ifodalaydi. (1) tenglamadan foydalanib har bir yoysimon uchli qoziqchali barabanning burchak tezliklarini turli xil qiymatlarida paxta oqimiga ta'siri va shu orqali tozalash samaradorligini oshirish Maple dasturi orqali grafiklarda tahlil qilindi.

bu yerda v – paxta bo'lakchasining tezligi; ω – burchak tezligi; m – paxta bo'lakchasining massasi; μ – ishqalanish koeffitsiyenti; h – qoziqchanning uzunligi; k – proporsionallik koeffitsiyenti; g – erkin tushish tezlanishi;


Ushbu tenglamaning harakatini tahlil qilishda bir nechta parametrlarning ratsional qiymatlari aniqlandi hamda 3 va 4-rasmlarda grafiklar ko'rinishida keltirildi.

Paxta bo'lakchasidan iflosliklarni ajratishda yoysimon uchli qoziqchalar va baraban bo'g'inlariga o'rnatilgan rezinali plankalar ta'sirida uzatishdagi harakati tahlil qilindi. Paxta bo'lakchalaridan iflosliklarni tozalashda tashqi kuchlarni hisobga olgan holda to'rtli yuzaga ta'siri orasidagi ishqalanish ta'siri ham keltirilgan. Paxta bo'lakchalarini qoziqchalar ta'sirida uzatishda paxta bo'lakchalarini

qoziqchalar ta'sirida keyingi qoziqchali barabanga uzatishda massalari kichik paxta bo'lakchalaridan mayda iflosliklarni tozalash samaradorligi grafiklarda tahlil qilindi.




3-rasm. Paxta bo'lakchasini uzatishni vaqtga bog'liqligi va massalarini turli qiymatlaridagi: $m_1 = 0,03 \text{ gr}$; $m_2 = 0,05 \text{ gr}$; $m_3 = 0,07 \text{ gr}$



4-rasm. Paxta bo'lakchasini uzatishni vaqtga bog'liqligi va uzatish burchak tezligini turli qiymatlaridagi: $\omega_1 = 7.6 \text{ ayl/s}$; $\omega_2 = 8.6 \text{ ayl/s}$; $\omega_3 = 9.6 \text{ ayl/s}$

Bundan tashqari paxta bo'lakchalariga ta'sir qiluvchi yoysimon qoziqchalar natijasidagi to'rtli yuza bo'ylab harakatini tahlil qilamiz.

5-rasmdagi sxemada paxta oqimiga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar keltirilgan:



5-rasm. Yoysimon uchli qoziqcha bilan to'rtli yuza orasidagi paxta bo'lakchasining harakat sxemasi (1-to'rtli yuza, 2-yoysimon uchli qoziqcha, 3-paxta bo'lakchasi)

F_{ish} -ishqalanish kuchi;

F_{el} -baraban bo'g'inidagi paxta oqimiga ta'sir qiluvchi elastiklik kuchi;

$m \cdot \omega^2 \cdot R$ -markazdan qochma kuch;

$m \cdot g$ - paxtaning og'irlik kuchi.

$AB = S_1$ bo'yicha deferensial tenglamasini ifodalaymiz. Yoysimon uchli qoziqchanning paxta oqimiga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar natijasidagi harakat tenglamasini aniqlaymiz.

$$\begin{cases} m\ddot{S} = mg \sin \varphi - F_{\text{msh}} \\ m\omega^2 R = N - F_{\text{sn}} - mg \cos \varphi \end{cases} \quad (2)$$

$$\begin{cases} m\ddot{S} = -mg \cos(\alpha + \gamma) - fN \\ m\omega^2 R = N - F_{\text{sn}} - mg \sin(\alpha + \gamma) \end{cases} \quad (3)$$

(3) tenglamadan qoziqcha sirtiga ta'sir qiluvchi normal bosim kuchini aniqlaymiz

$$N = m\omega^2 R + mg \sin(\alpha + \gamma) + k \cdot \Delta x \quad (4)$$

(4) tenglamani (2.17) tenglamadagi N normal bosim kuchiga qo'yamiz

$$m\ddot{S} = -mg \cos(\alpha + \gamma) - f(m\omega^2 R + mg \sin(\alpha + \gamma) + k \cdot \Delta x) \quad (5)$$

(5) tenglamani sodda ko'rinishga keltiramiz

$$m \cdot \ddot{S} + \frac{f \cdot m}{R} \dot{S}^2 = -m \cdot g \cdot \cos(\alpha + \gamma) - f \cdot m \cdot g \cdot \sin(\alpha + \gamma) - f \cdot k \cdot \Delta x \quad (6)$$

(6) tenglama ikkinchi tartibli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamani bir jinsli va hususiy ko'rinishda aniqlaymiz

$$\frac{d(\dot{S})^2}{2dS} + \frac{f}{R} \cdot S^2 = -f \cdot g \cdot \sin(\alpha + \gamma) - g \cdot \cos(\alpha + \gamma) - f \cdot k \cdot \Delta x \quad (7)$$

(7) differensial tenglamasi umumiy yechimini aniqlash uchun dastlab bir jinsli qismini hisoblaymiz.

$$T = T_1 + T_2$$

bu yerda: T_1 – bir jinsli qismi;

T_2 – hususiy ishi hisoblanadi.

$$\frac{d(\dot{S})^2}{2dL_1} + \frac{f}{R} \dot{S}^2 = 0 \quad \dot{S}^2 = T_1 \text{ belgilash kiritamiz}$$

$$\ln T_1 = -\frac{2 \cdot f}{R} \cdot S \Rightarrow T_1 = e^{-\frac{2fS}{R}} \cdot c_1 \quad (8)$$

$T_1 = \dot{S}^2$ ni (8) tenglikka qo'yamiz

$$\dot{S}^2 = e^{-\frac{2fS}{R}} \cdot c_1 \Rightarrow \dot{S} = e^{-\frac{fS}{R}} \cdot c_1$$

boshlang'ich sharoitdan foydalanib paxta bo'lakchalarini dastlabki harakatini $t=0$ $\dot{S} = v_0$ $S = 0 \Rightarrow c_1 = v_0$ tahlil qilamiz.

$$\dot{S} = e^{-\frac{fS}{R}} \cdot v_0$$

bu ifodani integrallab quyidagi ko'rinishga keltiramiz.

$$\frac{dS}{dt} = e^{-\frac{fS}{R}} \cdot v_0 \Rightarrow e^{-\frac{fS}{R}} \cdot dS = v_0 dt$$

$$\frac{R}{f} e^{-\frac{fS}{R}} = v_0 \cdot t + c_2 \quad (9)$$

boshlang'ich shartdan foydalanib c_2 o'zgarmasni aniqlaymiz $t=0$ $\dot{S} = 0 \Rightarrow c_2 = \frac{R}{f}$

aniqlangan c_2 o'zgarmasni qiymatini (2.18) tenglikka qo'yamiz

$$\begin{aligned} \frac{R}{f} e^{-\frac{fS}{R}} &= v_0 \cdot t + \frac{R}{f} \\ \frac{f}{R} S &= \ln \left(\frac{f}{R} v_0 \cdot t + 1 \right) \Rightarrow S = \frac{R}{f} \ln \left(\frac{f}{R} v_0 \cdot t + 1 \right) \\ S &= \frac{R}{f} \ln \left(\frac{f}{R} v_0 \cdot t + 1 \right) \end{aligned} \quad (10)$$

(7) differensial tenglamaning umumiy yechimini aniqlash uchun bir jinsli bo'lmagan qismini hisoblaymiz. Quyidagicha belgilash kiritish orqali yechimini izlaymiz

$$T_2 = M \sin \alpha + N \cos \alpha \quad (11)$$

ko'rinishida ifodalaymiz.

bu yerda: M va N o'zgarmas qiymatlar

$$\dot{T}_2 = M \cos \alpha - N \sin \alpha$$

$$\ddot{T}_2 = -M \sin \alpha - N \cos \alpha$$

bu ifodani (6) tenglamaga qo'yamiz

$$-\frac{M}{2} \sin \alpha - \frac{N}{2} \cos \alpha + \frac{f}{R} \cdot M \cos \alpha - \frac{f}{R} \cdot N \sin \alpha = -fg \sin \alpha - g \cos \alpha$$

bu ifodadan M va N o'zgarmas qiymatlarini aniqlaymiz.

$$M = \frac{2Rfg(R-2)}{R^2 + 4f^2}, N = \frac{2Rg(2f^2 + R)}{R^2 + 4f^2}$$


$$T_2 = \frac{2 \cdot R \cdot f \cdot g \cdot (R-2)}{R^2 + 4 \cdot f^2} \sin \alpha - \frac{2 \cdot R \cdot g \cdot (2 \cdot f^2 + R)}{R^2 + 4 \cdot f^2} \cos \alpha \quad (12)$$

To'rtli yuzaning AB sirtidagi paxta oqimining harakatini ifodalovchi tenglamaning umumiy ko'rinishini hosil qilamiz.

$$S = \frac{R}{f} \ln \left(\frac{f}{R} \cdot v_0 \cdot t + 1 \right) + \frac{2 \cdot R \cdot f \cdot g \cdot (R-2)}{R^2 + 4 \cdot f^2} \sin \alpha - \frac{2 \cdot R \cdot g \cdot (2 \cdot f^2 + R)}{R^2 + 4 \cdot f^2} \cos \alpha - \frac{f \cdot k \cdot \Delta x}{m} \quad (13)$$


(13) tenglama paxta oqimining iflosliklarni ajratishda markazdan qochma kuchiga, qamrash burchagiga, ishqalanish koeffitsiyentiga va oraliq masofalariga bog'liqlik tenglamasidir.

Bu tenglamani harakat trayektoriyasini aniqlashda Maple dasturidan foydalanib grafiklar qurildi (6 va 7-rasmlar), natijalar tahlil qilinib va ratsional qiymatlari aniqlandi.



6-rasm. Paxta oqimining harakatini 1-yoysimon qoziqcha ta'siridagi turli xil tezlikdagi iflosliklardan ajratishda yoy uzunlikdagi vaqtga bog'liqlik grafiklari

$$\vartheta_1 = 7.5 \frac{m}{s}, \vartheta_2 = 7 \frac{m}{s}, \vartheta_3 = 6.5 m/s,$$



7-rasm. Paxta oqimi harakatini turli xil 1-yoysimon qoziqcha ta'siridagi turli xil tezlikdagi iflosliklardan ajratishda markaziy burchakka bog'liqlik grafiklari.

$$\vartheta_1 = 7.5 \frac{m}{s}, \vartheta_2 = 7 \frac{m}{s}, \vartheta_3 = 6.5 m/s,$$

6 va 7-rasmdagi grafiklarni tahlilidan ko'rinadiki barabanga o'rnatilgan yoysimon qoziqchalarni iflosliklarni ajratishda tezliklari va markaziy burchakka bog'liq holda o'rnatilish holatlari muhim rol o'ynaydi. Ularning ratsional qiymatlari aniqlanib, paxtani mayda iflosliklardan tozalash samaradorligini oshirish mumkin. Shuning uchun ishlab chiqarilgan takomillashtirilgan 1XK paxtani mayda

iflosliklardan tozalash mashinasida ishlatiladigan 4 dona yoysimon uchli qoziqli barabanlar bilan toʻrli yuza orasidagi masofalarini paxta xom ashyosining miqdorining oʻzgarishiga asosan oʻrnatilsa, tozalash tizimidagi paxta xom ashyosining boshidan oxirigacha tozalash samaradorligi kamaytirmasdan ishlatish mumkin. Bu esa paxtani mayda iflosliklardan tozalash samaradorligini yuqori miqdorlariga erishish imkoniyatini beradi.

Dissertatsiya ishining uchinchi **“Tajribalarni oʻtkazish uslublari va natijalari”** deb nomlangan boʻlimida tajribalar natijalari bayon etilgan. Olingan statistik tahlilining maʼlumotlari grafik koʻrinishida ifodalanadi. “Microsoft Excel” dasturida maxsus funksiyalardan foydalanib topishimiz mumkin.



8-rasm. Laboratoriya sharoitidagi tajribalarni oʻtkazish jarayonidan lavha

sifat koʻrsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

Tajriba natijalarini “Paxtasanoati ilmiy markazi” AJ da laboratoriya sharoitida tahlil qilish va hisoblash ishlari maxsus dasturga ega boʻlgan kompyuterda olib borildi.


Tajriba variantlarini oʻtkazish vaqtida bir xil sifat koʻrsatkichlariga ega boʻlgan paxta xom ashyosidan foydalanildi. Paxta xom ashyosi tabiiy quyosh nuri taʼsiridagi atmosferada yoyilib quritib olindi. Tajribalarning barcha variantlarida foydalanilgan dastlabki paxta xom ashyosining

1-jadval


Laboratoriya tajribalarini oʻtkazishda ishlatilgan paxta xom ashyosining dastlabki sifat koʻrsatkichlari

Paxtani seleksion va sanoat navi		Paxtaning iflosligi, %		Paxta tarkibidagi chigitni mexanik shikastlanganligi, %	Paxtani quritishdan keyingi namligi, %
		umumiy	Mayda ifloslik		
Sulton	2-nav	7,4	5,9	1,2	8,9
Sulton	3-nav	11,9	8,8	2,6	8,9

Yoysimon uchli qoziqli barabandagi rezinali plankalar qatorini paxtani tozalash samarasi va paxta tarkibidagi chigitni mexanik shikastlanishiga taʼsirini oʻrganish boʻyicha oʻtkazilgan tajriba natijalari 9 va 10-rasmlarda grafik shaklida keltirilgan.



9- rasm. Barabandagi rezinali plankalar qatori sonini paxtani umumiy iflosliklardan tozalash samaradorligiga ta'siri



10-rasm. Barabandagi rezinali plankalar qatori sonini paxta tarkibidagi chigitni mexanik shikastlanishini oshishiga ta'siri

9 va 10-rasmdagi keltirilgan grafiklardan ko'rish mumkinki, qoziqli barabandagi rezinali plankalar qatori sonini 0 dan 4 qatorgacha o'zgartirilganida paxtani iflosliklardan tozalashning umumiy samaradorligi mos ravishda paxtaning 2-navini tozalashda 48,66 % dan 44,9 % ga, paxtaning 3-navini tozalashda esa 49,2 % dan 46,1 % gacha kamaydi. Bunga asosiy sabab, qoziqli barabandagi rezinali plankalar qatori sonini oshib borishi natijasida barabandagi paxtani tozalashda ishtirok etadigan qoziqchalar sonini kamayib borishini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

9 va 10-rasmdagi keltirilgan grafiklardan ko'rish mumkinki, qoziqli barabandagi rezinali plankalar qatori sonini 0 dan 4 qatorgacha o'zgartirilganida paxta tarkibidagi chigitning mexanik shikastlanishining ortishi mos ravishda paxtaning 2-navini tozalashda 0,8 % dan 0,5 % ga, paxtaning 3-navini tozalashda esa 0,83 % dan 0,66 % ga kamayib bordi. Bunga asosiy sabab, qoziqli barabandagi rezinali plankalar qatori sonini oshib borishi natijasida barabandagi paxtani tozalashda ishtirok etadigan qoziqchalar sonini kamayib borishi sababli, qoziqchalarni paxtaga zarba beruvchi soni kamayib boradi va urilish zarbini kamayishi bo'lishi mumkin.

O'tkazilgan dastlabki tajriba ishlari natijasida paxtani mayda iflosliklardan tozalagichining sifatli ishlashini ta'minlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi va to'liq omilli tajribalar o'tkazildi.

Birinchi omilga qoziqli barabandagi rezinali plankalar qatorlar soni olindi: X_1

Ikkinchi omilga yoysimon qoziqlarning egrilik radiusi variantlari olindi: X_2

Uchinchi omilga qoziqli barabandagi rezinali plankalar va to'rtli yuza orasidagi tirqishning variantlari olindi: X_3 .

Texnologiyada paxtani ifloslikdan tozalash sifatini baholashning kriteriya chegarasi sifatida tozalagichning tozalash samarasi Y_1 va paxta tarkibidagi chigitning shikastlanishini oshishi Y_2 olindi.

Dastlabki tajribalar asosida takomillashtirilgan paxta tozalagichning sifatiga ta'sir etuvchi omillarning qadami va oralig'i 2-jadvalda keltirilgan.

Omillar oralig'i va ularning qadami

№	Omillar nomlanishi	O'lchov birligi	Nomlanishi	Omillar miqdori			O'zgarish darajasi
				-1	0	+1	
1	Yoysimon uchli qoziqli barabandagi rezinali plankalar qatorlar soni	qator	X ₁	0	2	4	2
2	Barabandagi yoysimon uchli qoziqlarning egrilik radiusi variantlari	mm	X ₂	6	8	10	2
3	Qoziqli barabandagi rezinali plankalar va to'rtli yuza orasidagi tirqish	mm	X ₃	4	8	12	4

Tajriba sinovlarini o'tkazishda ko'p omilli PLANEXP-2 ikkinchi tartibli B₃ rejalashtirish usulidan foydalanildi. Hisoblashlar natijalari Koxren kriteriyasini hisobiy ko'rsatgichini inobatga olib, hamda Fisher kriteriyasi bo'yicha olingan regressiya tenglamasi, modelini adekvatligi aniqlandi. Bunda regressiya tenglamasi X₁, X₂ va X₃ ni paxtani tozalash samaradorligi bo'yicha:

$$Y_1 = 48,31 + 0,296X_1 + 0,86X_2 - 0,323X_3 - 0,972X_1^2 + 0,543 \cdot X_2^2 - 0,839 \cdot X_3^2 \quad (14)$$

